

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701302**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi gapda uch xil gap bo'lagi turdosh ot bilan ifodalangan?
A) *Erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot.*
B) *Samiyaxon kutubxonimizning faol kitobxonlaridan biridir.*
C) *O'lmasning onasi uyda do'ppi tikadi.*
D) *Shohim, Alisherga ozor bermang, u buyuk odam.*
2. Unim yo'q, bunim yo'q.
Uyimda unim yo'q.
Ishimda unim yo'q.
Aytishga unim yo'q.
Ushbu parchada o'zaro shakldosh bo'lgan so'zlar qaysi turkumlarga mansub?
A) *1 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh*
B) *2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh*
C) *2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh, 1 o'rinda fe'l*
D) *2 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh*
3. Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Ushbu gapda tobe qismi ham, hokim qismi ham yasama so'zdan iborat bo'lgan birikmalar sonini aniqlang.
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4
4. To'g'ri hukmni aniqlang.
A) *jarangli va jarangsiz juftlik hosil qiluvchi undoshlar shovqinli undoshlarga mansub*
B) *jarangsiz jufti yo'q jarangli undoshlar faqat sonor undoshlar guruhiga mansub*
C) *ovozdor undoshlarda shovqin ishtirok etmaydi*
D) *jarangli jufti yo'q jarangsiz undoshlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar sanaladi*
5. Qaysi gapda qatnashgan o'zaro shakldosh qo'shimchalar urg'u olish yoki olmasligiga ko'ra farq qiladi?
1. Kechgi taom payti tog'da ko'chki bo'lganligi haqida xabar berildi. 2. Bu yigitcha o'zini oqlashga tirnoqcha nasos topolmadi.
3. Qat – qatgina qatlama, aqling bo'lsa, tashlama. 4. Qadrdon kundaligim, senga hech bir so'z yozmaganimga ancha bo'ldi, mana, bugun qalamdon ichidagi qalamimga yana qo'l uzatdim.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4
6. Ko'chirma gapli qo'shma gap haqida berilgan noto'g'ri hukmni toping.
A) *ko'chirma gap ichida muallif gapi kelsa, muallif gapidan keyin ko'chirma gapning uzilgan qismi nuqta va tire yoki vergul va tire bilan davom etadi.*
B) *muallif gapi ko'chirma gapning ichida kelsa, ko'chirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan davom etishi mumkin.*
C) *ko'chirma gap muallif gapi ichida kelsa, ko'chirma gap kichik harf bilan boshlanadi va muallif gapi bosh harf bilan davom etadi.*
D) *ko'chirma gap oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari qo'shtirnoqdan keyin qo'yilish holati uchraydi.*
7. Insonlar istaydiki, yer yuzi gulbog'ining musaffo havosidan hamma bo'lsin bahramand.
Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
A) *Ergash gapning ham, bosh gapning ham egasi bir xil so'z turkumiga oid.*
B) *To'diruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.*
C) *Qaratqich aniqlovchilar faqat qaratqich aniqlovchiga tobelangan.*
D) *Ergash gap qismida barcha gap bo'laklari kesimga bevosita bog'langan.*
8. Berilgan so'zlardan qaysilari qismlaridan biri omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan, bir xil so'z turkumi kompozitsiyasidan hosil qilingan qo'shma otlar hisoblanadi?
1) gulbeor; 2) atrigul; 3) toshbag'ir; 4) qo'yko'z; 5) belbog'; 6) bodomqovoq; 7) laylakqor
A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 5, 7 D) 1, 2, 6, 7
9. Quyidagi so'zlardan nechtasi ham bir turkum, ham turli turkum doirasida omonim bo'la oladi?
tovon, savdo, o't, qon, ot
A) 5tasi B) 2tasi C) 3tasi D) 1tasi
10. Qaysi gapda ajtarib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida ko'chgan?
A) *Ko'ngliga qarayverib-qarayverib tug'ishganlaridan hambegona bo'ldim.*
B) *Avtomobilningeshigini* ochib do'stini chiqarib oldi.
C) *Hammamizning mana shukalondimog'* yigit aybdor, - degan fikr o'tadi xayolidan.
- D) *Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning* qo'li baland keldi.
11. Quyidagi nechta fe'l ham o'zlik, ham majhul nisbatda qo'llanishi mumkin?
otmoq, qurmoq, qo'shmoq, bo'lmoq, urmoq, yoymoq
A) 2ta B) 4ta C) 5ta D) 3ta
12. Son turkumiga oid so'z otlashgan gaplarni aniqlang.
1. To'qqizida bo'lmagan aql to'qsonida ham bo'lmas. 2. Ikki yomon qo'shilsa, keng dunyoga sig'maydi. 3. Mingta shirin nasihatdan bitta o'rnak yaxshi. 4. Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2, 4 D) 1, 4
13. Qaysi gapda kelishik qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirish mumkin?
A) *Mehnatsevarligidan el ichida obro' qozongan edi.*
B) *Hovli suv quygandek jimjit.*
C) *Matni kitobdan daftarga ko'chirdim.*
D) *Birdan chehrasidagi quvonch o'rnini hayrat egalladi.*
14. Vazifadosh bog'lovchi yordamida bog'langan bo'laklar to'ldiruvchiga tobelangan gapni toping.
A) *Beparvolik kishilar uchun na ma'naviy, na moddiy javobgarlik his qilishmagan joyda vujudga keladi.*
B) *Havo ochildi, lekin quyoshning harorati-yu issig'ini sezmayapmiz.*
C) *Haqiqatni hasad va manmanlikka qurbon etuvchilar uchun oldinda shu'la yo'q, chunki porloq kelajak ularga harorat baxsh etmaydi.*
D) *Ish vaqtida ayyor, lekin osh vaqtida tayyor bo'lib, sirtinda yaltirab, iching qaltirab turib, tirikman degandan ko'ra o'lim afzal.*
15. Qaysi gaplarda qaratqich kelishigini belgisiz qo'llash natijasida uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan?
1) Maktab bog'ida o'tgan yili ekilgan ko'chatlar bo'y cho'zib qolgan edi. 2. Yaxshining har bir ishi chiroyli, har bir qadami go'zal, yomonlar esa kundan kunga mung va alami ortadi. 3. Buyuk mutafakkir har bir asari o'quvchini doimo chuqur o'yga toldiradi. 4. Insoniyat tarixi o'zligimizni anglatadigan bizning olis shajaramizni va insoniy qadr-qimmatimizni belgilaydigan mo'tabar va muqaddas voqealidir.
A) 2, 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2 D) 1, 3
16. Qaysi javobdagi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay olmaydi?
A) *ganch-boylik* B) *gangimoq-esankiramoq* C) *norg'ul-barzangi* D) *tanti-mard*
17. Odam uchta narsaning qadrini doim kechikib biladi: yoshlik, sog'lik, tinchlik.
Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo'yilish sababi to'g'ri izohlangan javobni aniqlang.
A) *gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklarni ajratish uchun*
B) *umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin kelgani uchun*
C) *izoh munosabati bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lgani uchun*
D) *ajratilgan bo'lak qatnashgani uchun*
18. Ergash gap qismida uyushgan to'ldiruvchi ishtirok etgan ergashgan qo'shma gapni toping.
A) *Sa'diy Sheroziy xalq donishmandligining nodir namunalariga o'z iste'dodi bilan sayqal berib, "Guliston" va "Bo'ston"ni yaratdi.*
B) *Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafta emasman.*
C) *Xalqimiz o'tmishda ko'plab hokimliklar, xohlik va amirliklar tuzgan, shuning uchun uning ko'plab poytaxtlari bo'lishi tabiiydir.*
D) *Quyosh bosh ko'tarib chiqadi-yu, uxlab yotgan dov-daraxtlar, giyohlar, borliqni uyg'otib yuboradi.*
19. Yaproqlar tebranar she'r maqomiga, Chechaklar jimgina egib turar bosh.
Marmar sarhovuzning kumush jomiga
Shoir ko'zlaridan oqib tushar yosh.
Ushbu she'riy parchada moslashuvli tobe bog'lanishlar sonini aniqlang.
A) 4 B) 3 C) 5 D) 6
20. Qaysi gapda fe'lning fe'lga tobelanishidan hosil bo'lgan uchta holli so'z birikmasi mavjud?
A) *Shundagina u Shavkatning boshiga yuzini bosgancha o'ksib-o'ksib yig'lab yubordi.*
B) *Mashina peshanasiga o'rnatilgan oynaga chirsillab yomg'ir tomchilari urila boshladi.*
C) *Bolakay baqirib gapirayotgan bu notanish amakidan qo'rqqanidan yig'lab qochib ketdi.*
D) *Anchagacha qayerda yotganini bilolmay, ko'zlarini katta-katta*

ochgancha shifiga tikilib qoldi.

21. Quyidagi gaplarning qaysi birida hol va kesim uyushib kelgan?
A) *Inim, dunyoda kitob o'qimoqdan, tafakkurdan, she'r aytmoqdan zavqbxash mashg'ulot yo'qdir.*
B) *Shu yerga kelganda, mingboshining qovog'i solina boshlagan edi, qisiq ko'zlarining tez-tez yumilib pirqirayotganday bo'lganini Muryoqub ham payqadi.*
C) *U hamma vaqtdagidek did va farosat bilan kiyingan, avvalgidek chiroyli, xushmuomala edi.*
D) *Shoir o'z hayotida yaratgan ilmiy, madaniy muassasalarning yashashini, xayr-u ehsonlarning o'zidan keyin ham kattaroq miqyosda davom etishini orzu qildi.*
22. Taqdir kuldi,
o'lim tegmasdan o'tib ketdi,
qilmadi jur'at.
Netay, axir so'nggi minutda
pistoletim qildi xiyonat.
She'riy parchadagi yasama so'zlar haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) *yasama so'zlar uchta mustaqil so'z turkumiga tegishli.*
B) *2ta affiksatsiya usulida, 2ta kompozitsiya usulida yasalgan so'zlar ishtirok etgan.*
C) *Sodda yasama so'zlar bir turkumga oid so'zlardan hosil qilingan.*
D) *Uchta yasama so'z gaping bosh bo'laklari vazifasida kelgan.*
23. Quyidagilar orasidan so'z yasovchi va shakl yashovchi sifatida o'zaro omonim bo'la oladigan qo'shimchalari ko'rsating.
1) -siz, 2) -ona, 3) -lab, 4) -larcha, 5) -xon, 6) be-
A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6
24. Nuqtalar o'rniga faqat tushum kelishigi qo'llaniladigan gapni belgilang.
A) *Ko'p til... bilmoqlik... foydasi katta, u inson...katta boyligi hisoblanadi.*
B) *Mamlakat... kichik bir qismi bo'lgan oila... tinchligi... asraylik.*
C) *Qirg'yil umri... sarf qilib, yulduzlar siri..., koinot siri... o'rgandi-yu, zamin siriga, insonlar hayotiga kelganda g'aflatda qoldi.*
D) *Yo'lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay hayron bo'lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi.*
25. P.Qodirovning "Avlodlar dovoni" asarida Sherxon kimning yordamida hiyla-bo'htonlar yo'li bilan bir zarbada ham Humoyunning eng sadoqatli kutvoli bo'lgan amir Bahlulni mahv etish, ham Hindol bilan akasining do'stligini adovatga aylantirishga erishgan edi?
A) *La'l Chand* B) *Havaxxon* C) *Alvaro Pakavira* D) *Bitkromadit Gaur*
26. "Ho'ena! Aslo g'am yema! Shu o'gillaringning menda haqi ko'p. Sening tuzingni men ko'p yeganman. Katta o'g'ling meni ko'p parvarish qilar edi. Endi shuning arvohi uchun ertaga maydonga kiraman..."
"Ravshan" dostonidagi ushbu so'zlar qaysi qahramonga tegishli?
A) *Jaynoq kal* B) *Ersak kal* C) *Aynoq kal* D) *Tersak kal*
27. G'azali musajja usulida bitilgan g'azalni belgilang.
A) *"Jong'a chun dermen... g'azali (Navoiy)*
B) *"Shifoyi vasl qadrin... g'azali (Fuzuliy)*
C) *"Mani jondan o'sondirdi... g'azali (Fuzuliy)*
D) *"Mani jondan o'sondirdi... g'azali (Fuzuliy)*
28. Qaysi ijodkor she'rlaridan birida o'zini "kuyib o'rtangan elning xoki, nazm elining choloki, xonning boshining pokidurman" deya ta'rif beradi?
A) *Avaz O'tar* B) *Turdi* C) *Zavqiy* D) *Muqumiyy*
29. Ollohning sifatleri, go'zallik asarlari butun borliqda aks etishini qalb ko'zi ochiqdargina ko'ra olishini, g'ofillar esa bundan bexabarligini"
Jahon to'la, sen g'ofilsan Yoringdan" misrasi orqali bergan shoir kim?
A) *Turdi Farog'iy* B) *Maxtumquli* C) *Zavqiy* D) *Fuzuliy*
30. Qaysi javobda Haynrix Haynening she'riy kiroblari nomi berilgan?
A) *"Yo'l lavhalari", "Oqshom qo'shiqlari"*
B) *"Oqshom qo'shiqlari", "E'tirof"*
C) *"Romanserov", "E'tirof"*
D) *"Yo'l lavhalai", "Lukresiya"*
31. Har kima bo'lsa tabiat o'z yemak,
Ollina kelsa mashaqqat sabr etar,
Kim badan beslar esa keng aysh uza,
Toryerga o'g'rasa eldan kelar.
Ushbu she'r Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asaridagi qaysi hikoyat

xulosasi sifatida keltiriladi?

- A) *Tuz haqini to'lagan No'shiravoni odil haqidagi hikoyat*
B) *Sayohatga chiqqan ikki xurosoniy faqir haqidagi hikoyat*
C) *Bir kurashchi pahlavon hamda uning oqibatsiz shogirdi haqidagi hikoyat*
D) *O'g'ri va tilanchi haqidagi hikoyat*
32. Shuhratning "Oltin zanglamas" romanida Sodiqni maktabdagi halol o'qituvchilarni quvg'in qilish, ta'qib ostiga olishda ayblagan adabiy qahramonni aniqlang.
A) *Mirsalim* B) *Sa'dullayev* C) *Shukurov* D) *M. Abdurahmonova*
33. "G'iyos ul-lug'at" asarida keltirilgan quyidagi ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
"Puryoyvaliy (yoki Puryoyi vali) ... ning laqabidir. Bu kurash ilmidan mahorat qozongan keksa polvon, zo'rxona pahlavonlarining boshlig'i nazarda tutiladi. Zero, qaysi kurashchi, zo'rxonaga kirmoqchi bo'lsa, dastlab Puryoyvalining qadamiga (oyog'iga) bosh qo'yadi"
A) *Mahmud Qoshg'ariy* B) *Pahlavon Mahmud* C) *Boborahim Mashrab* D) *Ahmad yassaviy*
34. Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab!
Ushbu parcha Alish Navoiy ijodidagi qaysi adabiy qahramon tilidan aytilgan?
A) *Shirin* B) *Majnun* C) *Farhod* D) *Layli*
35. Quyidagi misralar qaysi adib qalamiga mansub?
"Menda qolsa, ijod jarayonida qandaydir ilohiyot bor, degan bo'lur edim. Haqiqiy ijodkor Xudo ko'ngliga solganda qo'lga qalam oladi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, tug'iladi!"
A) *O'tkir Hoshimov* B) *Abdulla Qahhor* C) *Odil Yoqubov* D) *Asqad Muxtor*
36. Jonimdagi "jim" ikki dolingga fido,
Andin so'ng "alif" toza niholingga fido.
"Nun"i dog'i anborin hiloliga fido,
Qolg'an ikki nuqta xolingga fido.
Navoiy qalamiga mansub ushbu ruboiyda qanday she'riy san'atlar qo'llangan?
1) *tardi aks;* 2) *tarse';* 3) *kitobat;* 4) *tanosub*
A) 3, 4 B) 1, 2 C) 2, 3 D) 1, 3

BIOLOGIYA

37. Quyionlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li $A_1A_1A_2A_2$ genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li $a_1a_1A_2a_2$ genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini quloq suprasining uzunligi 20 sm li quyonlar tashkil qiladi?
A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'yli o'simlik bilan chatishtirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Retinoblastoma ko'zning onkologik kasalligi bo'lib, erkaklar va ayollarda bir xilda uchraydi. Kasal ota-onalardan kasal farzandlarning tug'ilish ehtimolligi 75% yoki 100% bo'ladi. Otasi gomozigota kasal, onasi sog' bo'lgan qiz sog'lom yigitga turmushga chiqsa, farzandlarning 50% i kasal tug'ildi. Ushbu kasallikning irsiylanish qanday genga bog'liq?
A) *autosomaga birikkan dominant genga*
B) *autosomaga birikkan retsessiv genga*
C) *X-xromosomaga birikkan dominant genga*
D) *X-xromosomaga birikkan retsessiv genga*
40. i-RNK zanjirida 60 ta triplet mavjud. Undagi nukleotidlarning 1/3 qismi uratsilli, 1/5 qismi adeninli, 20% i sitozinli nukleotidlardan iborat. Nuklein kislotalar tarkibidagi nukleotidlar fosfodiefir bog'lar orqali tutashadi. Shu i-RNK fosfodiefir bog'lar sonini (a) va nukleotidlar tarkibini (b) toping.
A) *a-179; b-U=20, A=12, C=12, G=16*
B) *a-179; b-U=60, A=36, C=36, G=48*
C) *a-59; b-U=20, A=12, C=12, G=16*
D) *a-180; b-U=60, A=36, C=36, G=48*

41. Noma'lum miqdordagi glyukoza to'liq parchalandi. Ushbu jarayonda 4480 kJ issiqlik energiyasi va 154 molekula suv ajralib chiqdi. Dissimilyatsiya jarayonida to'liq parchalangan glyukoza miqdorini (g) aniqlang. hosil qilish uchun necha molekula ATF sarf bo'lishini aniqlang. (ADF va fosfat kislotaning birikishidan bir molekula ATF va bir molekula suv hosil bo'ladi)
A) 450 B) 630 C) 540 D) 360
42. Makkajo'xori diploid navi tetraploid navidan olingan chang donasi bilan changlantirildi. Urug'lanish jarayonidan so'ng hosil bo'lgan bitta murtak hujayrada (a) va bitta (b) endosperm hujayrasida (b) nechta xromosoma bo'ladi?
A) a-30; b-40
B) a-30; b-70
C) a-40; b-70
D) a-70; b-30
43. Albitsiya qaysi bo'limga (a), kakra qaysi sinfga (b) va kartoshka qaysi turkumga (c) mansub?
A) a-ikki urug'pallalilar; b-lolasimonlar; c-baqlajon
B) a- magnoliyatoifalar; b-lolasimonlar; c-baqlajon
C) a-lolasimonlar; b-magnoliyatoifalar; c-ituzum
D) a-gulli o'simliklar; b-ikki urug'pallalilar; c-baqlajon
44. Moddalar almashinuvi haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) Eukariot hujayrada reduplikatsiya va translyatsiya yadroda, transkripsiya sitoplazmada amalga oshadi.
B) Glukoza molekulasidagi potensial energiyaning o'rtacha 40% anaerob parchalanishda ajralib chiqadi.
C) Fotosintez, xemosintez reaksiyalari moddalar almashinuvi oraliq bosqichda amalga oshadigan dissimilyatsiya jarayoni reaksiyalari hisoblanadi.
D) ATF tarkibidagi uchinchi fosfat kislotaning ajralishi 40 kJ energiya chiqishiga imkon beradi.
45. Peshonasi past, qosh usti suyagi bo'rtib chiqqan, pastki jag'i katta, tishlari yirik, iyagi rivojlanmagan, miyasining hajmi 850-1220 sm³ bo'lgan. Ushbu ta'rif odamning qaysi ajdodlariga mansub?
A) kromanyon B) neandertal C) pitekanthrop D) sinantrop
46. Biosfera tirik moddasining funksiyasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) temir bakteriyalarining xemosintez qilishi; 2) atmosfera tarkibida kosmik chang zarralarining uchrashi; 3) hayvonlarning kislorod yutib CO₂ chiqarishi; 4) vulqonlarning otilishidan tog' jinslarining hosil bo'lishi; 5) geterotroflarning tayyor organik modda bilan oziqlanishi; 6) ildizoyoqli sodda hayvonlarda kalsiyning to'planishi
A) 1,2,3 B) 2,4,5 C) 1,3,6 D) 4,5,6
47. Abiotik omillar ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) odamlarda kesson kasalligining yuzaga kelishi va o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi
B) hayvonlar murdasining chirishi va gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi
C) qiyaliklarda kserofitlarning o'sishi va zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi
D) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi va yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminosi rivojlanishi
48. Yoz oylarida ko'p terlash natijasida ko'p suyuqlik yo'qotishi uning ichki muhiti kimyoviy tarkibining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu o'zgaruvchanlikning qaysi turiga misol bo'ladi?
A) genotipik-ontogenetik
B) fenotipik-ontogenetik
C) genotipik-rekombinativ
D) fenotipik-modifikatsion
49. Bosh miyaning stvol qismida (a) va orqa miyada (b) joylashgan vegetativ nerv sistemasi markazlarining funksiyalarini aniqlang.
1) yurakning minutlik sistolik hajmini oshiradi; 2) o'pkalar ventilatsiyasini kuchaytiradi; 3) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 4) me'da shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi; 5) siydik pufagi muskullarini bo'shashtiradi; 6) siydik pufagi muskullarini qisqartiradi
A) a-4; b-1,2 B) a-1; b-3,6 C) a-2; b-4,5 D) a-5; b-2,4
50. Odam organizmidagi maksimal bosim yuzaga kelgan vaqtda...
A) qoricha diastola holatida bo'ladi; simpatik nerv sistemasi ta'sir qiladi
B) ikki tavaqali klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha sistola holatida bo'ladi
C) yarimoyimon klapan ochiq bo'ladi; qorincha diastola holatida bo'ladi
D) yarimoyimon klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha diastola holatida bo'ladi.
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgilar orasidan sog'lom odamning siydik qopiga xos bo'lmagan belgilarni ajrating.
1) murtak varaqasining endodermasidan rivojlanadi; 2) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalari ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatik nerv sistemasi ta'sirida muskullari bo'shashtiradi; 6) siydik qopi devorida proprioretseptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida siydik qopi muskullari qisqarib siydik ajraladi
A) 1,2,3 B) 1,5,7 C) 3,6,7 D) 3,4,5
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilymfa suyuqligi bo'ladi.
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Chuchuk suv shillig'i organlarining tuzilishi haqidagi noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) yurak qorinchasidan chiquvchi qon tomirning uchi ochiq; 2) paypaslagichlari sezgi hamda ozuqani tutib og'izga yo'naltirish vazifasini bajaradi; 3) mayda tishchalar bilan qoplangan muskulli tilchasi qizilo'ngach ichida joylashgan; 4) jigar ishlab chiqargan suyuqlik oshqozon bo'shlig'iga quyiladi; 5) bir juft tasmasimon buyragining voronkasimon uchi yurak oldi bo'lmasiga ochiladi; 6) tuxum va spermatozoidlar bitta organizmning o'zida hosil bo'ladi
A) 2,4 B) 2,5 C) 3,6 D) 1,5
55. Og'iz a'zosi kemiruvchi tipda tuzilgan chala o'zgarish bilan rivojlanadigan hasharotlarni aniqlang.
A) Sariq suvarak, moviy ninachi, to'shak qandalasi
B) yashil temirchak, Osiyo chigirtkasi, Turkiston termi, halqali ninachi
C) Osiyo chigirtkasi, suluv ninachi, kolorado qo'ng'izi, beshiktvertar
D) moviy ninachi, yashil temirchak, Turkiston termi, burga
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr
B) a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon
C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha
D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon
57. Qushlarning qanday patlarida ilgachalar mavjud emas?
1) par; 2) qoplag'ich patlar; 3) qoqish patlar; 4) momiq patlar; 5) boshqarish patlari
A) 2,4 B) 1,5 C) 1,4 D) 3,5
58. Qayin odimchisi (a) va taqaburun (b) qanotlari qaysi a'zoldan hosil bo'lgan va ular o'zaro qanday a'zolar (c) hisoblanadi?
1) ko'krak bo'limining orqa qismlari; 2) qorin bo'limining orqa qismlari; 3) oldingi oyoqlarning o'zgarishidan; 4) orqa oyoqlarning o'zgarishidan; 5) gomologik; 6) analogik
A) a-2; b-4; c-5 B) a-1; b-1; c-5 C) a-2; b-4; c-6 D) a-1; b-3; c-6
59. Qoqshol qo'zg'atuvchisiga xos bo'lmagan xususiyat?
1) tallomida hosil bo'lgan o'simalarni ajratish yo'li bilan ko'payadi; 2) irsiy belgilari polinukleotid zanjirda joylashgan; 3) membranasini lipid va oqsil moddalaridan iborat; 4) ribosomalari endoplazmatik to'r bilan hamkorlikda oqsil sintezini amalga oshiradi; 5) hujayra qobig'i murein moddasidan iborat bo'lib, irsiy belgilari yadroda joylashgan; 6) membranasini sitoplazmani hujayra qobig'idan ajratib turadi.
A) 2,3,6 B) 1,4,5 C) 1,3,5 D) 2,4,6

60. Hujayra qobig'i sellyulozadan iborat organizmlarga zarar keltiruvchi, hujayra qobig'i murein moddasidan iborat organizmlarni aniqlang.
1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) agrobakterium; 5) leyshmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikasi
A) 6,7 B) 2,5 C) 3,6 D) 1,4
61. Quyidagi organizmlar diploid hujayrasi 2- va 5-juft gomologik xromosomalarining har biri bittaga ortsa, ular kariotipida nechta xromosoma bo'ladi?
a) zog'ora baliq; b) suvarak; c) no'xat
A) a-106; b-44; c-14
B) a-104; b-44; c-12
C) a-106; b-50; c-16
D) a-102; b-44; c-12
62. Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.
1) jaydari g'o'za; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"
A) 5,6,7 B) 1,2,4 C) 7,8,10 D) 1,3,9
63. EcoRI restriktazasi GAATTC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GA nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 110,5 nm uzunlikdagi DNK molekulasi EcoRI restriktazasi orqali A,B,C bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulasidagi vodorod bog'lar sonidan 2% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, DNK bo'laklari (A,B,C) tarkibidagi vodorod bog'larning nechta G va C nukleotidlari orasida joylashgan?
A) 350 B) 450 C) 426 D) 334
64. Gullari qiyshiq, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.
1) o'tloq sebgasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenosis
A) 1,3,4,5
B) 2,4,5,6
C) 1,2,3,6
D) 2,3,4,6
65. Nastarin qaysi jihatlar bilan tokka o'xshaydi?
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) gulpo'yaning shoxlanishi
A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
66. Rezavor meva hosil qiladigan o'simlik navlarini aniqlang.
1) Zarg'aldoq; 2) Vatan; 3) Farhod; 4) Sohibi; 5) Gultish; 6) Qozidastor; 7) Buvaki; 8) Zarmiton; 9) Obidov; 10) Kattaqo'rg'on
A) 4,5,7,10 B) 1,3,6,9 C) 5,7,8,10 D) 1,2,7,8
67. Lolasiimonlar (1), archadoshlar (2), ituzum (3) va qoqio'tdoshlar (4) sistematiq birliklarga mansub o'simliklarni aniqlang.
A) 1-qo'ng'irbosh; 2-sharq sauri; 3-kartoshka; 4-bo'znoq
B) 1-oq shuvoq; 2-sharq sauri; 3-baqlajon; 4-bo'yadaron
C) 1-piyozli arpa; 2-sekvoyadendron; 3-baliqko'z; 4-kakra
D) 1-boychachak; 2-qarag'ay; 3-qizil ituzum; 4-qoqio't
68. Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
A) atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon
B) tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi
C) poyasida xitin moddasi uchraydi
D) zamburug' bilan bir hujayrali suvo'tining simbiozi
69. Itsigak (a) va isirg'ao't (b) ga xos bo'lgan belgilarni ajrating.
1) gultojbarglarning 2 tasi qo'shilgan, 3 tasi erkin; 2) barglari oddiy yonbarsiz; 3) avtoxor o'simlik; 4) gulqo'rg'oni oddiy, tojbarsimon; 5) barglari yonbargchali; 6) sho'radoshlar oilasiga mansub; 7) dukkadoshlar oilasiga mansub; 8) gulqo'rg'oni oddiy kosachasimon
A) a-2, 4, 6; b-1, 3, 7
B) a-1, 3, 7; b-2, 4, 6
C) a-1, 3, 5; b-2, 6, 8
D) a-2, 6, 8; b-1, 5, 7
70. Burchoqning gajagi (a) va zirkning tikani (b) qaysi a'zodan hosil bo'lgan va ular o'zaro qanday a'zolar (c) hisoblanadi?
1) bargning shakl o'zgarishidan; 2) novdaning shakl o'zgarishidan; 3) po'stloqning shakl o'zgarishidan; 4) yonbargchani shakl o'zgarishidan; 5) gomologik; 6) analogik
A) a-2, b-2, c-5 B) a-3, b-4, c-6 C) a-1, b-1, c-5 D) a-1, b-2, c-6
71. Yer yuzidagi yagona quruqlik-Pangeya ikki bo'lakka ajralgan davrda...
A) yo'ldoshi sutemizuvchilar paydo bo'lgan
B) kordaitlar paydo bo'lgan
C) dastlabki sutemizuvchilar paydo bo'lgan
D) arxeopteriks paydo bo'lgan
72. Organizmlarning qaysi sistematiq guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?
1) tog'ayli baliqlar; 2) suyakli baliqlar; 3) tikandum skat; 4) sudralib yuruvchilar; 5) panjaqanotli baliqlar; 6) latimeriya; 7) soxta kurakburun
A) 1,2,3 B) 1,2,4 C) 4,5,7 D) 3,6,7

KIMYO

73. Berilgan kompleks birikmalardan kation kompleksni tanlang.
A) $[Co(NH_3)_3(NO_2)_3]$
B) $Ag(NH_3)_2Cl$
C) $K_4[Fe(CN)_6]$
D) $(AlOH)_3(PO_4)_2$
74. Qaysi modda fluoressein va ezoin olishda asosiy xomashyo hisoblanadi?
A) fenol B) ftal anhidrid C) fluroglutsin D) galantamin
75. $H_2SO_4 \rightarrow S \rightarrow H_2S$ qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?
A) dissotsiyalanish darajasi
B) qaytaruvchilik
C) oksidlovchilik
D) suvda eruvchanligi
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa, shu DNK ning qo'sh spirali tarkibida nechta vodorod bog' mavjud?
(nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
A) 1200 B) 1300 C) 800 D) 1000
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislotaga eritmasida eritilganda fosfat kislotaga miqdori 3 marta ortadi. Olingan eritмага o'yuvchi natriy eritmasidan 360 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.
A) 85,2 B) 72 C) 98,4 D) 14,2
78. 59 g $R-CCl_3$ tarkibli gemigaloid uglevodorod suv bilan gidrolizlanganda 29,6 g karbon kislotaga olindi. Olingan karbon kislotani aniqlang.
A) sirka kislotaga
B) chumoli kislotaga
C) propion kislotaga
D) moy kislotaga
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 8,96 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma 200 g NaOH eritmasi (NaOH ning foiz konsentratsiyasi suvnikidan 84% ga kam) bilan reaksiyaga kirisha oladi. Xuddi shunday boshlang'ich aralashma bromli suvdan o'tkazilganda 66,2 g cho'kma tushishi ma'lum bo'lsa, dastlabki aralashmadagi fenol massasini (g) aniqlang.
A) 47 B) 18,8 C) 37,6 D) 9,4
80. Oltinchi energetik pog'ona (qavat) ga maksimal sig'ishi mumkin bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.
A) 72 B) 32 C) 36 D) 54
81. 500 g 25,1% li natriy gidrofosfat eritmasiga yetarli miqdorda 500 ml ortofosfat kislotaga eritmasidan qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi natriy digidrofosfat tuzining massa ulushi natriy gidrofosfat tuzining massa ulushidan 1,5 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan fosfat kislotaga eritmasining molyarligini (M) aniqlang.
A) 0,02 B) 0,04 C) 0,5 D) 0,1
82. Sanoat usuli bo'yicha 8,4 kg tiopen olish talab etiladigan oltingugurt qancha (kg) pirit tarkibida bo'ladi? (Piritning tozalik darajasi 75%)
A) 32 B) 16 C) 12 D) 24
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO_2 gazi, 0,2 mol benzoy kislotaga va 0,4 mol tereftal kislotaga hosil bo'ldi. Benzoy kislotani hosil qilgan aromatik uglevodorod massasini (g) aniqlang.

- A) 38 B) 45 C) 26,8 D) 53,6
84. Dissotsiatsiyalanish darajasi 96% bo'lgan natriy nirtat tuzi eritmasida 2400 ta ion bor bo'lsa, nechta dissotsiatsiyalanmagan tuz molekulasi bor? (suvning dissotsiatsiyalanishi hisobga olinmasin)
A) 20 B) 50 C) 30 D) 60
85. Kaliy sulfid quyidagi qaysi moddalar bilan ta'sirlashadi?
A) HCl va H_2SO_4
B) KCl va H_2S
C) $CaCO_3$ va Na_2SO_4
D) Na_2S va HNO_3
86. 6,72 litr (n.sh.) butan tarkibidagi vodorod atomlari sonini aniqlang.
A) $7 \cdot N_A$
B) $2,4 \cdot N_A$
C) $3 \cdot N_A$
D) $3,6 \cdot N_A$
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 20% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 3/16; 9/16; 1/4
B) 1/9; 2/3; 2/9
C) 3/10; 3/10; 2/5
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. $^{102}_{54}No \rightarrow ^{96}_{52}Cm + x^4_2\alpha + y_{-1}e$ yadro reaksiyasida 12,7 mg No yemirilishidan hosil bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.
($a-x=249$; $x+y=9$)
A) $36,12 \cdot 10^{23}$
B) $12,04 \cdot 10^{19}$
C) $18,06 \cdot 10^{18}$
D) $96,32 \cdot 10^{18}$
89. 0,03 mol $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ va $Na_2CO_3 \cdot 8H_2O$ aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,28 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.
A) 2:1 B) 2,5:1 C) 1:1 D) 1:3
90. Noma'lum element tarkibida 35,3% neytron (jami atom zarrachaga nisbatan) mavjud. Undagi proton va elektron yig'indisi neytronlar yig'indisidan 10 taga ortiq bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) F B) Br C) Na D) Ne
91. $20^\circ C$ da turgan $CO + O_2 \leftrightarrow CO_2$ sistemada bosim 4 marta oshirildi. Sistema harorati necha gradusgacha o'zgartirilganda to'g'ri reaksiya tezligi 8 marta ortadi? ($\gamma=2$)
A) -20 B) 20 C) 10 D) -10
92. X% li eritma massasining 1/5 qismi bug'latildi. Bunda erituvchining massasi 1/4 qisimga kamaydi. Eritmaning massa ulushi 5/4 martta ortsa, X ni aniqlang.
A) 25 B) 20 C) 30 D) 15
93. Tarkibida noma'lum modda saqlangan 240 g eritmaning molyarligi va molyalligi 5 ga teng bo'lsa, noma'lum moddani aniqlang. ($\rho=1,2$ g/ml deb hisoblansin)
A) H_2SO_4
B) KOH
C) $NaOH$
D) HCl
94. 52 g $H_2SO_4 \cdot xSO_3$ tarkibli oleumni neytrallash uchun 1,12 mol KOH sarflandi. X ning qiymatini aniqlang.
A) 0,4 B) 0,1 C) 0,3 D) 0,5
95. Eritmadagi pH qiymati pOH qiymatidan 0,75 marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.
A) 8 B) 10 C) 12 D) 11
96. $XO_4^{3-} \rightarrow X^{3-}$ Ushbu qaytarilish jarayonida X^{3-} qabul qilgan elektronlar soni dastlabki X ning protonlari sonidan 33/8 marta kam bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) P B) As C) N D) Sb
97. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 33,4 g xlorat ionlari $2,4 \cdot N_A$ dona elektron biriktirib oldi. Qaytarilish mahsulotini toping.
A) Cl^-
B) ClO_4^-
C) ClO_2^-
D) Cl_2^0
98. 0,3 mol $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ tarkibli kristallogidrat ma'lum miqdordagi suvda eritilib 1,5 molyalli eritma hosil bo'lgunga qadar 10 amper tok kuchi bilan 19300 sekund davomida elektoliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilganligini aniqlang?
A) 246,4 B) 96,4 C) 164 D) 182
99. 91,8 g metal oksididan 124,8 metall xloridi olingan. Metallni aniqlang.
A) Zn B) Ba C) Ca D) Fe
100. Quyidagi o'zgarishlarda X_1 va X_2 moddalarni sintez qilish uchun qaysi moddalar qo'llaniladi?
 $P_4 \rightarrow X_1 \rightarrow X_2 \rightarrow Ca_3(PO_4)_2$
A) kislorod va suv
B) suv va kalsiy gidroksid
C) suv va suv
D) kislorod va kaliy xlorid
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning massasini (g) hisoblang.
A) 22,4 B) 11,2 C) 28 D) 16,8
102. Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.
A) 524 B) 628 C) 208 D) 828
103. $xCaCO_3 = yCaCO_3 + zCaO + zCO_2$ ifodada x, y, z, z ko'effitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 2:1:1:1 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 50 B) 53 C) 170 D) 85
104. O_2 va O_3 aralashmasi hajmiga teng hajmda N_2 qo'shilganda hosil bo'lgan aralashmaning argonga nisbatan zichligi 0,8 ga teng bo'lsa, O_2 va O_3 aralashmasidagi O_2 hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 25 B) 75 C) 70 D) 30
105. Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasidagi HCl tugaguncha eritilganda H_2 gazi ajraldi va $MeCl_2$ ning 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan $MeCl_2$ eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)
A) 71 B) 66 C) 59 D) 46
106. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.
1) $(NH_4)_2CO_3$; 2) K_2SO_4 ; 3) CH_3COONH_4 ; 4) $NaNO_2$; 5) $Cu(NO_3)_2$; 6) $(CH_3COO)_2Ca$
A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 2 ta azot molekulasiga teng bo'lgan alkenni aniqlang.
A) *buten* B) *etilen* C) *penten* D) *propen*
108. 26,8 g olma kislotaga stexiometrik nisbatda Na metali qo'shilganda olingan H_2 ni 11,2 litr (n.sh.) C_2H_2 bilan ta'sirlashtirildi. Natijada olingan gazlarni to'liq yondirish uchun necha mol havo kerak?
A) 1,2 B) 7 C) 1,4 D) 1,8